

IMPROVEMENT OF THE SYSTEM FOR HANDLING SAMPLES AND SPECIMENS OF GOODS IN CUSTOMS CONTROL

Sodiqjonov Sardorbek Sobirjon o`g`li

Cadet of the 4th course at the Customs Institute of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance

email: sodiqjonovsardor04@gmail.com

Abstract:

This article analysis the current state of the system for handling samples and specimens of goods within the customs authorities of the Republic of Uzbekistan, the regulatory and legal framework governing this process, international practices, and potential directions for system improvement. A comparison is made between China's experience and the requirements of CM-145 (the Regulation "On the Procedure for Conducting Customs Expertise of Goods and Vehicles" dated February 21, 2022). Procedural uncertainties are identified, the need for digitalizing the process of sending samples and specimens to the Central Customs Laboratory is examined, and practical solutions and recommendations for implementing Chinese experience into national practice are presented.

Keywords:

Customs expertise, sample, chain of custody, logistics system, product composition, specimen, international standards (WCO, ISO, EU), QR/Barcode identification, Chinese experience, digitalization, international practice.

Keywords:

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida tovarlarning namunalari va sinamalarini tasarruf etish tizimining amaldagi holati, uni tartibga soluvchi huquqiy asoslar, xalqaro tajribalar hamda tizimni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Xitoy tajribasi va O'zbekiston VM-145 (2022-yil 21-fevraldagi "Tovarlar va transport vositalarini bojxona ekspertizasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom) talablari bilan solishtirilgan, tartibga oid noaqniliklar, namunalar va sinamalar Markaziy Bojxona Laboratoriyasiga jo'natish jarayonlarini raqamlashtirish amaliy yechim va Xitoy tajribasi asosida taklif asosida amaliyotga joriy etish.

Kalit so'zlar: *bojxona ekspertisasi, namuna, chain of custody, logistika tizimi, tovar tarkibi, sinama, xalqaro standartlar (WCO, ISO, EU), QR/Barcode identifikatsiya, Xitoy tajribasi, raqamlashtirish, xalqaro tajriba.*

KIRISH

Bugungi kunda global savdo hajmining ortib borishi va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi hamda bojxona nazorati tizimini zamon talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining liberallashtirish hamda tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bojxona organlari faoliyatida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bojxona nazoratida tovarlarni to'g'ri identifikatsiyalash, ularning sifatini va xavfsizligini aniqlash davlat manfaatlari, tadbirkorning manfaatlarini himoya qilish va xalqaro savdo qoidalariga rioya etish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Bojxona ko'rigi jarayonida olingan namuna va sinamalar tahlili bojxona nazoratining eng muhim bosqichlaridan biridir. Markaziy bojxona laboratoriyasiga yuboriladigan namuna va sinamalar holati va ularning o'z vaqtida yetib borishi nafaqat ekspertiza natijasiga, balki huquqiy jarayonlarning ishonchliligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois namuna olish, qadoqlash, rasmiylashtirish, jo'natish va yetkazib berish kabi bosqichlar xalqaro standartlarga mos ravishda bo'lishi kerak.

Amaldagi tartibga ko'ra, xususan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 145-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq, Ushbu hujjat xalqaro standartlarga mos bo'lgan tizimni joriy etish, jarayonlarni soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Namuna yoki sinamani bojxona inspektorlari belgilangan talablar asosida oladi, rasmiylashtiradi va laboratoriyaga yuboradi. Amaliyotda esa hududiy boshqarmalar tomonidan namunalarni laboratoriyaga jo'natish jarayoni ayrim bir amaliy kamchiliklarga duch kelmoqda. Mazkur maqolada hududiy postlardan Markaziy bojxona laboratoriyasiga namunalarni yuborish mexanizmini to'liq raqamlashtirish, Xitoy bojxona tizimi tajribasini joriy etish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mavjud huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirilgan holda takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarimni berib o'taman.

Nazariy-huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'RQ-400 Bojxona kodeksining 208-217-moddalarida Bojxona ekspertizasi va ularni tanlab olish huquqiy asos hisoblanadi. Mazkur moddalar bojxona ekspertizasi, tovarlardan namunalar olish tartibi va ekspert xulosasining huquqiy ahamiyatiga doir asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi va 145-sonli qaror bojxona nazoratida namuna va sinamalarni olish, saqlash, tadqiq etish hamda yo'q qilish tartibini belgilaydi. Nizomda "namuna" va "sinama" tushunchalari aniq farqlab, ularning huquqiy maqomi, javobgarlik mexanizmi va laboratoriya tadqiqotlari tartibi ko'rsatib o'tilgan.

Bu tizimning joriy etilishi tovarlarni Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha to'g'ri tasniflashni, bojxona to'lovlarini to'g'ri va to'liq undirilishi, respublika hududida noqonuniy tovarlar oqimini cheklash va nazorat qilinishini ta'minlaydi.

1. Amaliy jarayonlar tahlili

Bugungi kunda hududiy bojxona postlarida olinayotgan namunalarni Markaziy Bojxona Laboratoriyasiga yetkazish jarayoni turli usullarda – pochta, kuryerlik yoki tartibga solinmagan boshqa yo'llar orqali amalga oshirilayotgani bois, bir qator amaliy muammolar yuzaga kelmoqda. Avvalo, ko'plab postlarda inspektorlar hamda tadbirkorlar namuna yoki sinamani Markaziy Bojxona Laboratoriyasiga yuborish uchun jo'natma xarajatlarini o'z hisobidan qoplashga majbur bo'lib qolmoqda, bu esa xodimlar zimmasiga qo'shimcha moddiy tomonlama yuk bo'lmoqda, tadbirkorlar nuqtayi nazaridan esa bunday holat tizimga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirib, ular uchun ortiqcha xarajat sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, jo'natmalarning real vaqt rejimida qaysi yo'nalishda ketayotgani, qaysi bosqichda ekanini kuzatishning imkoniyati yo'qligi sababli bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini sustlashishi, bu esa o'z navbatida tadbirkorlar bojxona omborlaridan o'z tovarlarini o'z tovarlarini ichki bozorlarga olib chiqish muddat va bojxona nazorati vaqtining uzayishiga olib kelmoqda. Tadbirkorlarning o'z mahsulotini bozorda imkon qadar erta sotuvga chiqarish uchun to'sqinlik qilmoqda. Xususan, ayrim hollarda namuna yoki sinama Markaziy Bojxona Laboratoriyasiga kech yetkazilgani sababli tekshiruv bojxona ekspertizasi muddatlari cho'zilab ketishiga olib kelmoqda. Bu borada Bojxona qo'mitasi raisi General mayor Mavlonov.A.Y

yoshlar bilan uchrashuvda hududiy postlardan laboratoriyaga kelayotgan namunalar sonining kamligi borasida bildirgan tanqidiy fikrlari ham ushbu jarayonlarni qayta ko'rib chiqish, yagona tartib joriy etish va namunalar yetkazib berish tizimini aniq hamda shaffof mexanizm asosida yo'lga qo'yish zarurligini yana bir bor o'z isbotini ko'rsatmoqda.

Namuna olish jarayonida shaffoflikni ta'minlash, ma'lumotlarning aniq yuritilishini yo'lga qo'yish va laboratoriya tekshiruvlarining ishonchliligini oshirish maqsadida namunalar qaysi inspektor tomonidan, qachon va qayerda olingani, qanday tartibda topshirilgani haqidagi barcha ma'lumotlar rasmiy elektron QR-kod bilan biriktirilgan holda rasmiylashtirilishi zarur. QR-kodning asosiy vazifasi har bir namunaning identifikatsiya raqamini, olinishi va topshirilish vaqtini, inspektor to'g'risidagi ma'lumotlarini, bojxona posti manzilini hamda navbatchilik bo'yicha mas'ul shaxslarni yagona elektron tizimda qayd etishdir. Afsuski, hozirda QR-kod orqali ishlaydigan biror bir baza shakllanmagan. Bunday holat bojxona nazorati vaqtining uzayishiga, jarayonning umumiy samaradorligini pasaytiradi va eng muhimi laboratoriyaga namuna va sinamalarning kelish hajmini keskin kamaytirmoqda. Shuningdek, ushbu tizimning raqamlashtirilmaganligi sababli namunalar sonidagi sezilarli kamchiliklar, yuqorida rahbariyat tomonidan qayd etilgan tanqidlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bojxona organlarida namuna va sinama olish amaliyoti odatda uch asosiy holatda namuna va sinamalar Markaziy Bojxona Laboratoriyasiga yetib keladi. Birinchisi bojxona organlari tomonidan import rejimidagi tovardan bojxona ekspertizasi o'tqazish uchun olib kelinadi. Ikkinchisi jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan va uchinchisi surishtiruv yoki sud organlari tomonidan olib kelinadi. Har bir jarayonning o'ziga xos talablari mavjud bo'lib, ularning barchasi yagona tartib asosida ishlaydi. Shuningdek har bir olingan namuna yoki sinama maxsus paket yordamida qadoqlanadi, qadoqlash jarayoni esa xalqaro talablarga mos holda amalga oshiriladi. Qayta ochilmaydigan, muhrlangan, germetik pakettlardan foydalaniladi. Bunday qadoqlash usuli namuna yoki sinamaga zarar yetmasligi va uning almashtirib qo'yilmasligi uning fizik-kimyoviy tarkibi o'zgarishini kafolatlaydi. Markaziy Bojxona Laboratoriyasida o'tkaziladigan ekspertiza muddati 20–30 ish kunini tashkil etadi. Ushbu muddat ichida Markaziy Bojxona Laboratoriya ekspertlari tomonidan mahsulotning tarkibi, Tif tn kodi, sifati, qo'llaniladigan standartlari, xavfsizlik ko'rsatkichlari yoki texnik reglamentlarga mosligini tekshiradi. Tovarga inspektor tomonidan Bojxona ekspertizasi o'tqazilganligi to'g'risida hulosasi beriladi. Agar natija ijobiy bo'lsa, namuna yoki sinamani qolgan qoldiqlari tovara vakolatli shaxsga qaytariladi. Agar salbiy ko'rsatkichlar aniqlansa, namuna va sinamani qolgan qoldiqlari laboratoriyada 3 yilgacha saqlanadi.

Tovarga nisbatan kamchiliklar tug'iladigan bo'lsa, ushbu namuna va sinama asosida qo'shimcha bojxona ekspertizasi o'tqaziladi. Salbiy holat aniqlangan namunalar laboratoriyada ma'lum muddat saqlanadi va qo'shimcha bojxona ekspertizasi uchun qayta foydalaniladi. Odatda namunalar 3 yilgacha saqlanishi belgilangan, ammo tez buziladigan mahsulotlar uchun bu muddat 1 oygacha qisqartiriladi. Saqlash muddati tugaganidan so'ng namunalar maxsus komissiya ishtirokida va ekologik talablar asosida yo'q qilinadi. Bu jarayon dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Umuman olganda, mazkur jarayonlarning to'liq raqamlashtirilishi, QR-kod tizimi joriy etilishi, statistik monitoring yo'lga qo'yilishi va Markaziy Bojxona Laboratoriya yuklamasining avtomatik boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday yondashuv faqat shaffoflik va ishonchlilikni

oshiribgina qolmay, tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratadi, xodimlar faoliyatini yengillashtiradi va tahlil jarayonlarining real vaqt davomida kuzatib borilishini ta'minlaydi.

Namuna olish jarayoni

Bojxona inspektori importyor yoki tovarga nisbatan vakolatli shaxsdan namunalarni taqdim etish zarurligi haqida xabar beradi. Namuna olish usuli reprezentativ bo'lishi kerak, u tovarlarning turli qismlaridan va yetarli miqdorda olinishini ta'minlaydi. Namuna-bu bojxona laboratoriya tekshiruvlarida muayyan tovar partiyasining umumiy sifat ko'rsatkichlari, tarkibiy xususiyatlari va texnik-me'yoriy talablariga muvofiqligini aks ettiruvchi eng kichik, ammo butun bir partiyaning xususiyatlarini beruvchi qism hisoblanadi. Ya'ni, laboratoriya uchun ajratiladigan har bir namuna butun partiyaning haqiqiy holatini to'liq ifoda etishi, uning fizik, kimyoviy, organoleptik yoki texnologik belgilarini aniq ko'rsatib berishi shart. Shu sababli, bojxona organlarida namuna olish jarayoni aniq reglamentga asoslanadi, mutaxassislar tomonidan qat'iy standartlarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi va rasmiy dalolatnoma asosida rasmiylashtiriladi. Namuna to'g'ri tanlanmasa yoki partiyaning xususiyati bermasa, laboratoriyada olingan natijalar partiyaning haqiqiy holatini aks ettirmasligi va xulosalarning noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bojxona amaliyotida namuna nafaqat kichik bir bo'lak, balki ekspertiza jarayonlarining to'g'ri o'tqazilishi, uning ishonchliligi va butun partiyaning bojxona qiymati hamda tasniflanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim element sifatida qaraladi. Markaziy Bojxona Laboratoriyasida ushbu namuna asosida ilmiy-tahliliy sinovlar o'tkazilib, uning tarkibi, sifati, xavfsizlik ko'rsatkichlari, texnik reglamentlarga muvofiqligi bo'yicha rasmiy ekspert xulosasi tayyorlanadi. Natijada namuna butun bir partiyaning xususiyatini beruvchi asosiy mezon sifatida bojxona laboratoriya jarayonlarining asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Bojxona organlari namunaning miqdori yoki og'irligidan uning hajmidan kelib chiqib belgilanadi. Bu odatda tovarga qarab umumiy tovar partiyasining eng minimal qismini tashkil qiladi. Namuna qadoqlangan bo'lishi va jo'natmaning identifikatsiyasi va qadoq ustidagi tafsilotlari to'ldirilishi kerak.

Bojxona nazoratida namuna va sinama olish jarayoni tovarlarning tarkibi, sifati, kelib chiqishi va xavf darajasini aniqlashda eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi, birinchi navbatda, namuna va sinama miqdorining to'g'ri belgilanishiga bog'liq. Bojxona kodeksiga ko'ra mazkur miqdorlarning tanlab olinishi bojxona ko'rigini amalga oshirayotgan bojxona organi inspektori tomonidan belgilanadi. Ushbu miqdor Bojxona qo'mitasi buyrug'i asosida normativ jihatdan belgilangan eng kichik qismi butun partiya xususiyatlarini beradigan namunaviy birlikning eng kam miqdori bo'lib, u bojxona ekspertizasini to'g'ri va to'liq o'tqazilishini ta'minlaydi. Shunday yondashuv ekspertiza natijalarining shubhasizligini oshiradi va laboratoriyada o'tkaziladigan fizik-kimyoviy tahlillar uchun yetarli miqdorda bo'lishini kafolatlaydi. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, standartlashtirilgan minimal miqdorlar belgilanishi namuna olish jarayonini yagona metodologiyaga asoslanadi.

Xitoyda Bojxona ekspertisasi o'tqazish uchun namuna va sinamalarni tanlab olishning eng kam miqdori

Mahsulot nomi	TIF TN kodi	Namuna miqdori
Oziq-ovqat va ichimliklar	02–21 (0201-Go'sht mahsuloti)	100-500 g yoki 1-2 dona
To'qimachilik va kiyim-kechak	50–63 (6201 - Palto)	1-2 dona yoki 100-200 g
Kimyoviy moddalar	28–38 (2901 - Uglevodorodlar)	500 g yoki 100-250 ml
Mashina va elektronika	84–85 (8517 - Telefonlar)	1-2 birlik
Farmatsevtika/dorilar	30 (3004 - Dorilar)	50-100 g
Metall va rudalar	72–83 (7201 - Temir)	200–500 g
Plastmassa va kauchuk	39–40 (3901 - Polimerlar)	200–500 g
Yog'och va qog'oz mahsulotlari	44–49 (4401 - Yog'och)	100-300 g yoki 1 kichik bo'lak

Avtomobillar va ehtiyot qismlar	87 (8703 - Avtomobillar)	-	1 birlik yoki 1 komponent
Kosmetika va hashamatli mahsulotlar	33 (3304 - Pardozi)		50-100 ml/g yoki 1-2 dona
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	06-14 (0801 - Yong'oq)	-	200-500 g

Tovarlardan olinadigan namuna yoki sinama uchun belgilangan eng minimal miqdorlar aynan o'zimizning milliy bojxonamizda ham mavjud va deyarli farqlari katta emas.


Misol uchun; Oziq-ovqat mahsulotlari uchun milliy bojxonamizda 200 gramm-2000 gramm 3 nusxada olinadigan bo'lsa, Xitoy bojxonasida esa 100-500 g yoki 2 nusxalarda olinadi. Albatta bu Xitoy bojxona ekspertizasida qo'llaniladigan uskunalar va priborlar rivojlanganini bildiradi.

Raqamlashtirilgan logistika modeli: Xitoy bojxona tizimi tajribasi Xitoy bojxona tizimi hozirgi kunda dunyodagi eng rivojlangan va to'liq raqamlashtirilgan logistika modellaridan biriga ega bo'lib, unda namunalarni laboratoriyaga yetkazish jarayoni to'liq elektron boshqaruv va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu modelning samaradorligi shundaki, jarayonning barcha bosqichlari real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Natijada inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar minimal darajaga tushiriladi. Xitoy tajribasida har bir namuna Yagona Milliy Logistika Platformasi orqali QR-kod yoki shtrix-kodga biriktiriladi. QR/Barcode tizimi namunaga ID raqam berish, uning harakat yo'nalishini aniqlash, mas'ul shaxslarni qayd etish va laboratoriyaga yetib borguniga qadar bo'lgan barcha logistik harakatlarni yozib borish imkonini yaratadi. Bu jarayon "Chain of Custody" ya'ni "Mulkiy javobgarlik zanjiri" tamoyiliga asoslanadi. Mazkur tamoyil namuna yoki sinamani qaysi inspektor tomonidan olingani, qaysi vaqtda topshirilgani, kim tomonidan qabul qilingani va laboratoriyaga yetkazilishining har bir bosqichi o'z aksini topishini anglatadi. "Chain of Custody"ning elektron shakli jarayonning shaffofligini ta'minlabgina qolmay, keyinchalik har qanday huquqiy, texnik yoki ekspertiza jarayonida ishonchli dalil sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, Xitoyda sun'iy intellekt asosidagi logistik algoritmlar namunani laboratoriyaga yetib kelish vaqtini oldindan prognoz qiladi. Bu laboratoriya yuklamasini oldindan rejalashtirish, navbatlarni optimallashtirish va resurslarni tejash imkonini beradi. Transport xarajatlari esa markazlashgan byudjet orqali rejalashtiriladi, hududiy inspektorlar yoki tadbirkorlar zimmasidan barcha qo'shimcha moliyaviy yukni olib tashlaydi va tizimni to'liq davlat korporativ boshqaruv mexanizmiga moslashtiradi.

Yagona elektron namuna-logistika tizimini yaratish

Taklif etilayotgan yagona elektron logistika tizimi Markaziy Bojxona Laboratoriyasiga namunalarni yuborish jarayonini to‘liq raqamlashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan. Ushbu model quyidagi asosiy komponentlardan iborat bo‘ladi:

1. Yagona elektron platforma Har bir namuna QR-kod yoki shtrix-kod orqali ro‘yxatga olinadi va elektron bazaga kiritiladi. Bu raqamlashtirish usuli namunaning butun “hayot sikli”ni kuzatish imkonini beradi: Namuna va sinamani olingan vaqti, posti, mas’ul inspektor, qadoqlanish holati, tashish bosqichlari va laboratoriya tomonidan qabul qilingani to‘liq aks etadi.
2. Pochta operatori bilan yagona shartnoma transport va yetkazib berish xarajatlarini markazlashtirish orqali logistika jarayonining moliyaviy yuklamasi davlatning yagona tizimi tomonidan qoplanadi. Bu inspektorlar va tadbirkorlarda yuzaga keladigan qo‘shimcha xarajatlarni bartaraf etadi.
3. “Chain of Custody”ning rasmiy elektron joriy etilishi Jarayonning barcha bosqichlari avtomatik tarzda qayd etiladi: Namuna olinganidan boshlab laboratoriyaga topshirilguniga qadar har bir harakat elektron iz qoldiradi. Bu shaffoflikni ta’minlaydi, tekshiruv natijalarining ishonchliligini oshiradi va har qanday kelgusidagi tahlil yoki tekshiruvlar uchun hujjatli asos yaratadi.
4. Mobil ilova orqali real vaqt boshqaruvi inspektorlar, laboratoriya xodimlari va logistik operatorlar jarayonni mobil qurilmalar orqali boshqaradi. Bu nafaqat monitoringni tezlashtiradi, balki xodimlarning mas’uliyatini oshiradi va axborot almashinuv jarayonini soddalashtiradi. Ilmiy natija sifatida mazmuni taklif etilayotgan tizim bojxona organlarida namunalarni boshqarishning zamonaviy, integratsiyalashgan va raqamlashtirilgan modelini yaratishga xizmat qiladi. Bunda raqamli identifikatsiya, elektron axborot almashinuvi, avtomatlashtirilgan nazorat va sun’iy intellekt modellarining bir butun tizim sifatida ishlashi ta’minlanadi. Ushbu yondashuv tizimning shaffofligi, tezligi, ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.



Kutilayotgan iqtisodiy va tashkiliy foydalari taklif etilayotgan yagona elektron namuna-logistika tizimini joriy etish bojxona amaliyotida bir qator sezilarli iqtisodiy va tashkiliy samaradorliklarga olib keladi. Avvalo, hozirgi sharoitda yil davomida 50 million so‘m miqdorida shakllanayotgan

namunalarni yetkazib berish xarajatlari yagona shartnoma asosidagi markazlashgan logistika orqali 20 foizgacha qisqartirilishi mumkin. Bu markazlashtirilgan xarajatlar boshqaruvi ham xodimlar, ham tadbirkorlar zimmasidagi qo‘shimcha moliyaviy yukni bartaraf etadi. Tizimning raqamlashtirilgan shakli jarayonlar tezligini 20–40 foizgacha oshiradi, chunki qr kod orqali rasmiylashtiriladigan ma‘lumotlar avtomatik qayd etiladi. Bojxona organlari va pochta operatorlari mobil ilovasi integratsiya qilinishi natijasida transport harakatlari real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Shuningdek, amaldagi tartibda inspektorlar va tadbirkorlar tomonidan o‘z shaxsiy mablag‘laridan sarflanadigan jo‘natma xarajatlari to‘liq to‘xtatiladi, bu esa korrupsiya xavfini kamaytiradi va tizimning institutsional ishonchliligini oshiradi. Bu nafaqat moliyaviy tejamkorlikni, balki tashkiliy boshqaruvning takomillashishini ham ta‘minlaydi. Huquqiy asoslar bilan uyg‘unligi taklif etilayotgan raqamlashtirilgan logistika tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan to‘liq uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, xususan Vazirlar Mahkamasining 145-son qarorida belgilangan talablarga mos keladi. Yagona elektron platformaning joriy etilishi mazkur talablarga nafaqat to‘liq rioya qilish imkonini beradi, balki ularni avtomatlashtirish orqali jarayonning shaffofligi, aniqligi va huquqiy tomondan sezilarli darajada oshiradi. “Chain of Custody” tizimida har bir harakat avtomatik qayd etilishi huquqiy bazasini mustahkamlaydi.

Ushbu tizimda joriy etilishi jarayonida bir qator tashkiliy va texnik muammolarga duch kelishi mumkin. Birinchi navbatda, dasturiy ta‘minotni yaratish va integratsiya qilish xarajatlari mavjud. Biroq ushbu xarajatlarni bosqichma-bosqich joriy etish modeli asosida sezilarli darajada kamaytirish kerak.

Dastlab sinov loyihasi, so‘ng hududiy bosqichlar va yakunda respublika miqyosida tatbiq etish. Bu byudjet sarfini bir vaqtning o‘zida ortiqcha oshirib yubormaslikka imkon yaratadi. Logistika tizimining boshqa xizmatlar bilan integratsiya qilishdagi murakkablik, yagona transport operatori bilan tuziladigan markazlashgan shartnoma bu jarayonni soddalashtiradi. Masalan, Yandex Delivery yoki milliy pochta operatorlari orqali markazlashtirilgan yetkazib berish tizimini tatbiq etilsa tayyor mobil ilovasi bor, reak vaqt rejimida ishlaydi. Bunday markazlashgan yondashuv tizimning barqaror ishlashi va samaradorlikni oshiradi.

XULOSA

Xitoy bojxona tizimida qo‘llanilayotgan to‘liq raqamlashtirilgan logistika modeli bugungi kunda namunalarni laboratoriyaga yetkazish jarayonini optimallashtirish, avtomatlashtirish va shaffoflashtirish borasida dunyodagi eng ilg‘or yondashuvlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu tajriba namunalarni identifikatsiya qilish, ularning harakat izlarini qayd etish, logistika zanjirini nazorat qilish va laboratoriya yuklamasini muvozanatlashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan, texnologik imkoniyatlarga tayangan kompleks mexanizmini yaratgan. Aynan shu model O‘zbekiston bojxona tizimida mavjud bo‘lgan muammolar, tartibga solinmagan yetqazib berish jarayonlari, statistik monitoringning avtomatlashtirilmaganligi, real vaqt kuzatuv mexanizmlarining yo‘qligi, qo‘shimcha rasmiy bo‘lmagan xarajatlarning mavjudligi kabi masalalarning samarali yechimi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Taklif etilayotgan yagona elektron namuna-logistika tizimi o‘zining funksional tuzilmasi, raqamli identifikatsiya, QR/Barcode asosida ro‘yxatga olish, “chain of custody”ning avtomatik yuritilishi, markazlashgan transport tizimi, mobil boshqaruv ilovasi va sun‘iy intellektga asoslangan prognozlash mexanizmlaridan iborat bo‘lib, O‘zbekiston bojxona

amaliyotida mavjud jarayonlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamlashtirilgan tizim laboratoriyaga namuna va sinama oqimini boshqarishda aniqlik va shaffoflik muhitini yaratadi. Natijada Bojxona ekspertizasining ishonchliligi ortadi, xodimlarning moliyaviy tomondan yukini bartaraf etiladi. Bu esa VM-145-son qarorida belgilangan talablar namuna olish tartibi, laboratoriyaga yetkazish bo'yicha bojxona organlarining majburiyatlari va normativ me'yorlar bilan to'liq mos keladi. Umuman olganda, Xitoy tajribasiga asoslangan raqamlashtirilgan logistika tizimini O'zbekiston bojxona amaliyotiga tatbiq etish namuna olishdan tortib laboratoriyagacha bo'lgan barcha jarayonlarni shaffof, tezkor, iqtisodiy samarador va texnologik jihatdan barqaror tizimga aylantiradi. Bu nafaqat bojxona organlarining institutsional salohiyatini oshiradi, balki tadbirkorlik muhitida ishonchini kuchaytiradi balkim, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonining xalqaro standartlarga mos holda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-martdagi 145-sonli qarori.
3. World Customs Organization. *Revised Kyoto Convention*, 2006.
4. OECD Trade Policy Papers, №253, 2023.
5. <http://english.customs.gov.cn/>
6. <https://www.bing.com/ck/>
7. [Home - GACC](#)
8. [Customs Decrees - GACC](#)